



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



INGLIZ TILIDA PREFIKSLAR ORQALI YASALISH.

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

Navoiy davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

iqbolsalomadinnovna@gmail.com

+998 99 664 56 86

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilida prefikslar orqali soʻz yasash jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot prefikslarning morfologik vazifasi, ularning yordamida yangi leksik birliklar hosil qilinishi, soʻz maʼnosining oʻzgarishi va grammatik toifalarning almashinishiga eʼtibor qaratadi. Ingliz tilidagi prefikslar semantik funksiyalariga koʻra (inkor, takror, vaqt, yoʻnalish va h.k.) tasniflanadi hamda ular bilan hosil boʻlgan soʻzlar misollar orqali koʻrsatiladi. Shuningdek, prefikslarning lotin va yunon tillariga oid kelib chiqishi hamda ularning zamonaviy ingliz tilidagi soʻz boʻyligini kengaytirishdagi oʻrni yoritiladi. Mazkur maqola ingliz tilining morfologik tuzilishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi va til oʻrganuvchilar uchun prefiksli soʻz yasash usullarini samarali oʻzlashtirishga koʻmaklashadi.*

Kalit soʻzlar: *ingliz tili, prefiks, soʻz yasalishi, morfologiya, affiksatsiya, hosila soʻz, leksik taraqqiyot, semantik funktsiya, lugʻaviy birlik, tilshunoslik*

Chet tillarini oʻrganishda grammatikani tushunish qanchalik muhim boʻlsa, lugʻaviy boylik ham shunchalik muhim hisoblanadi. Inson qancha koʻp soʻz bilsa muloqot va erkin harakat qilish imkoniyati kengayadi. Ingliz tilida lugʻat boyligi soʻz yasash tizimining boyligi bilan bogʻliq jarayondir. Yangi soʻzlar umumiy tamoyillar asosida yaratiladi. Ushbu tamoyillarni yaxshi bilan kishi notanish soʻzlarga duch kelganda ham qiynalmaydi.

Affikslar ularning soʻzdagi joylashuviga qarab uch guruhga boʻlinadi: prefikslar (old qoʻshimchalar), infikslar (soʻz orasiga qoʻshiladigan affikslar), va suffikslar (soʻz oxiriga qoʻshiladigan affikslar). Qaysi turdagi tilga mansubligiga qarab bu holat saqlanishi yoki yoʻqolishi mumkin. Flektiv tillarda (masalan, ingliz tili) suffikslar koʻpincha koʻplikda yoki turli grammatik vazifalarni bajaradi.

Germaniya qabilalari Britaniyaga bostirib kirib, toʻrt asr davomida ustunlik uchun kurashgan va yetti qirollik tuzganlar: Kent, Sasseks, Esseks, Vesseks, Mersiya, Sharqiy Angliya, Nortumbriya. 828-yilda Vesseks qiroli ustunlikni qoʻlga kiritib, butun Angliya qiroli boʻlgan. VI asr oxiriga kelib, ingliz-sakson Britaniyasi Yevropadan deyarli ajralgan edi. 597-yilda Rim papasi Gregoriy I butun german bosqinchilariga xristianlikni yoyish topshirigʻini bergan. Natijada xristianlik va Lotin tili ingliz tiliga chuqur taʼsir koʻrsatgan⁴⁷.

Qadimgi ingliz tilida soʻzlar quyidagicha rivojlangan:

⁴⁷ Булудхан Х.А., Лексикология современного азербайджанского языка, Баку-Нурлан, 2008, С- 442.



1. Tildagi mavjud elementlar yordamida yangi soʻzlar yaratish.
2. Boshqa tillardan soʻzlarni oʻzlashtirish.

Qadimgi ingliz tilida birinchi yoʻl — ichki morfologik soʻz yasash — ustun boʻlgan. Affikslar yordamida yangi soʻz yasash usuli oʻsha davrlarda keng qoʻllanilgan boʻlib, bu usul zamonaviy til uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Qadimgi ingliz tilidagi koʻp prefikslar hind-yevropa tillaridan merosdir. Masalan, inkor maʼnosini bildiruvchi un- prefiksidagi *-n-* elementi koʻplab tillarda uchraydi: fransuz tilida *ne*, rus tilida *не, ну*.

Koʻp prefikslar qadimgi ingliz tilidagi predlog va ravishlardan (masalan: *mis-*, *be-*, *ofer*) hosil boʻlgan. Ular garchi mustaqil soʻzlar sifatida ham mavjud boʻlsa-da, soʻz yasovchi affikslarga aylangan⁴⁸.

Oʻrta asrlarda ingliz tiliga skandinav tillari va fransuz tili kuchli taʼsir koʻrsatdi. Natijada:

Fransuzcha *dis-*, *des-* prefikslar orqali soʻz yasash rivojlandi: *disappoint*, *disdain*, *disagree* keyinchalik *disown*, *distrust*, *disburden* kabi yangi inglizcha feʼllar yaratildi. Fransuzcha *en-* (lotincha *in-*) prefiksi orqali: *encage*, *encircle*, *encompass*, *embed*.

15-asrdan boshlab London dialekti adabiy norma boʻlib, yangi morfologik tizimlar shakllana boshladi. Misol: *hēafod* (bosh) → *behēafodian* (boshini olish), zamonaviy shakli: *behead*.

Shunday qilib, prefikslar zamonaviy ingliz tilida ham feʼllar yasashda faol ishlatilmoqda: *encase*, *enchant*, *encircle*, *encourage*, *ensure*, *envenom*. Zamonaviy analoglar: *befool*, *belittle*

Oʻrta asrlarda ingliz tilida affiksial morfemalar tizimida sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi. Bu oʻzgarishlar, avvalo, ingliz tiliga skandinav dialektlari hamda fransuz tilining taʼsiri bilan bogʻliq boʻlib, ushbu taʼsir prefikslarning tarkibiy va semantik xususiyatlarini sezilarli darajada boyitdi.

Fransuz tilidan oʻzlashtirilgan ayrim morfemalar ingliz tilida mahsuldor affikslarga aylana oldi. Masalan, *dis-* va *des-* prefikslari orqali “inkor” yoki “salbiy sifat” bildiruvchi quyidagi feʼllar hosil boʻlgan: *disappoint* (umidsizlikka uchratmoq), *disdain* (mensimaslik), *disagree* (rozi boʻlmaslik). Keyinchalik bu prefikslar ingliz tilining oʻz ildizlari bilan ham birlashib yangi feʼllar hosil qilgan: *disown* (voz kechmoq), *disburden* (yukdan xalos qilmoq)⁴⁹.

Bundan tashqari, bu prefikslar skandinavcha ildizlarga ham qoʻshilib: Fransuzcha *en-* prefiksi esa lotincha *in-* formasidan olingan boʻlib, ingliz tilida quyidagi feʼllar yaratishda ishlatilgan: *encage* (qafasga solmoq), *encircle* (aylanmoq), *encompass* (oʻrab olmoq), *embed* (joylashtirmoq), *endear* (sevimli boʻlishga sabab boʻlmoq).

⁴⁸ Hajiyeva A., English Lexicology (textbook), Baki, Elm va t̄hsil, 2011, 248 s̄h.

⁴⁹ Grinberg L.E., Kuznets M.D., Kumacheva A.V., Meltser G.M. Exercises in Modern English Lexicology, Foreign languages publishing house, Moscow, 1960, -P. 239.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



XV asrdan boshlab London dialekti ingliz adabiy tili sifatida keng tarqaldi va asta-sekin ingliz tilining asosiy morfologik normalarini shakllantirdi. Har bir til tizimidagi o‘zgarishlar morfologiyaga bevosita ta’sir qildi. Qadimgi ingliz tilida ayrim yangi fe’llar quyidagicha yasalgan: Ot + prefiks + infinitiv affiks (-an) → fe’l *hēafod* (bosh) + *be-* + *-an* → *behēafodian* (boshini tanasidan ajratmoq, ya’ni *behead*). Zamonaviy davrda ushbu fe’l soddalashib, *behead* shaklini oldi. Unda faqat *be-* prefiksi saqlanib qolgan. Qadimgi ingliz tilidagi *be-* va *en-* prefikslari ot ildizlariga qo‘shilib yangi fe’llar hosil qilishda faol rol o‘ynagan. Ayniqsa, *en-* prefiksi fransuz tilidan o‘tib, zamonaviy tilga quyidagi shakllarda singdirilgan:

O‘rta asr shakli	Zamonaviy shakli	Ma’nosi
<i>encasen</i>	<i>encase</i>	o‘rash, joylashtirish
<i>enchanten</i>	<i>enchant</i>	sehrlamoq
<i>encirclen</i>	<i>encircle</i>	o‘rab olmoq
<i>encouragen</i>	<i>encourage</i>	ruhlantirmoq
<i>ensuren</i>	<i>ensure</i>	kafolatlamoq
<i>envenomen</i>	<i>envenom</i>	zaharlamoq

Bu jarayon prefikslarga grammatik funksiya yuklaydi va oddiy otlardan fe’l hosil qilish imkonini beradi. Bugungi kunda bu model asosida quyidagidek yangi fe’llar ham yaratilgan: *befool* (ahmoq qilmoq), *belittle* (kamsitmoq, kichraytirmoq). Prefikslar o‘rta asrlar davomida ingliz tilining turli morfologik darajalarida rivojlanib, zamonaviy davrgacha boy tajriba orttirgan. Ular qadimgi ingliz tilidan boshlab o‘z tarixiy o‘zgarishlarini boshidan kechirgan va boshqa tillar bilan aloqalar natijasida yangi semantik yuklamalar kasb etgan. Bu prefikslar zamonaviy ingliz tilining leksik boyligi va grammatik moslashuvchanligida muhim o‘rin tutadi.

Yangi so‘zlarni o‘zlashtirish bosqichma-bosqich amamlga oshadi. Lug‘at boyligini tez kngaytirish usullaridan biri ingliz tilida so‘z yasash usullarini yaxshi o‘zlashtirishdir. So‘z qanday prinsip asosida tuzilishini anglab, ilgari tanish bo‘lgan bir so‘zdan boshqa su ildizli so‘zdosh so‘zlar ma’nosini chiqarib olish mumkin. Ingliz tilida so‘z yasash ikki xil usulda amalga oshadi. Ya’ni prefix old qo‘shimchalar va suffiks qo‘shimchalar orqali yasaladi. Ildiz – bu so‘zning asosiy ma’no yuklovchi qismi ya’ni o‘zbek tilida o‘zakga mos keladi. O‘zaksiz ya’ni ildizsiz so‘z bo‘lmaydi. Prefiks va suffikslar majburiy emas lekin so‘zga qo‘shilganda yangi so‘z hosil qilishga xizmat qiluvchi birliklar hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tilida prefix va suffiks alohida ko‘rib chiqiladi.

Barcha prefikslar o‘ziga xos ma’noga egaligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida so‘z yasashning prefix usuli – prefix old qo‘shimcha – bu so‘z ildizidan oldin qo‘shiladigan qo‘shimcha bo‘lib, ingliz tilida asosan so‘zning ma’nosini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Prefikslar odatda so‘z turkumining (grammatik kategoriyasini) o‘zgartirmaydi. Biroq ayrim hollarda *en*, *em* prefikslari orqali istisno holatlarda fe’llar hosil qilinadi. Prefiksning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



semantik funksiyalari xilma-xil bo'lsa-da, ular orasida ayniqsa inkor yoki qarama-qarshi ma'no hosil qiluvchi guruhi ham mavjuddir.

Inkor ma'noli prefiksalar:

un-: *unpredictable* (oldindan aytib bo'lmaydigan) *unable* (qodir emas)

dis-: *disapproval* (ma'qullamaslik), *disconnection* (aloqani uzish)

im, *in*, *il*, *ir* prefiksalar orqali *inactive* (faol emas), *impossible* (mumkin emas), *illegal* (qonunga hilof) kabi inkor so'zlar ham yasash imkoniyatini beradi.

Ushbu prefikslarning so'z oldidan qo'llanilishi im faqat b,p,m, harflari oldidan qo'llaniladi. Masalan *impatient*-sabsiz. *il* faqat l oldidan qo'llaniladi *illegal*. *ir* faqat r harfi oldidan *irresponsible*. Boshqa qilarda in ishlatiladi (*inconvenient* – noqulay).

mis- *misfortune* (baxtsizlik), *misunderstand* (noto'g'ri tushunmoq), *misinform* (noto'g'ri xabar bermoq). Ushbu prefix har doim ham to'g'ridan – to'g'ri antonym yasamaydi. Balki nohush holatlarni ham ifodalaydi.

So'z yasash jarayoni ingliz tilida keng va murakkab jarayon hisoblanib, prefiksalar orqali so'z yasashda boshqa ma'no beruvchi prefiksalar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

re-: *rebuild* (qayta qurmoq), *rethink* (qayta o'ylab chiqmoq), *return* (qaytmoq)

co-: *cooperate* (hamkorlik qilmoq), *co-author* (hammuallif)

over-: *oversleep* (uyquni ortiqcha davom ettirmoq), *overcome* (yengib o'tmoq), *overweight* (ortiqcha vazn)

under-: *underact* (to'liq ijro qilmaslik), *underestimate* (kam baholamoq), *underground* (yerosti, metro)

pre-: *prehistoric* (tarixgacha davr), *pre-production* (ishlab chiqarishdan oldingi bosqich)

post-: *post-modern* (postmodernizm), *postnatal* (tug'ruqdan keyingi)

en-, *em-*: *encode* (kodlamoq), *enclose* (atrofini o'ramoq), *empower* (vakolat bermoq).

em- shakli b, p, m tovushlari oldidan keladi.

ex-: *ex-champion* (sobiq chempion), *ex-minister* (sobiq vazir).

Ingliz tilidagi prefikslarning tarixiy rivojlanishi tilning morfologik tizimi shakllanishida muhim rol o'ynagan. Qadimgi ingliz tilida prefiksalar asosan fe'llar bilan qo'llanilgan bo'lib, ularning semantik funksiyasi chuqur va barqaror bo'lgan. O'rta asrlarda esa tilga fransuz va skandinav tillarining kuchli ta'siri prefikslarning tarkibiy va semantik boyishiga olib kelgan. Bu davrda ko'plab xorijiy kelib chiqishga ega prefiksalar ingliz tiliga kirib kelib, mahsuldor so'z yasash vositalariga aylangan.

Prefiksalar nafaqat yangi so'zlar hosil qilishda, balki mavjud so'zlarga yangi ma'no, uslubiy tus va grammatik funktsiya berishda ham faol ishtirok etgan. Ayniqsa, *be-*, *en-*, *un-*, *mis-*, *dis-* kabi prefiksalar orqali zamonaviy ingliz tilida yuzlab yangi fe'l va sifatlar shakllangan. Ushbu prefiksalar ko'pincha ot, sifat va fe'l ildizlariga qo'shilib, yangi so'zlar yasashning analogik modelini yaratgan. Ingliz tilidagi prefiksalar nafaqat tarixiy morfologiyaning obyekt sifatida, balki tilning dinamik taraqqiyoti va zamonaviy leksik tizimining shakllanishida ham markaziy o'rin egallaydi. Ularning o'rganilishi ingliz tilining



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tarixiy taraqqiyotini chuqur anglash, zamonaviy soʻz yasash mexanizmlarini tahlil qilish va lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Булудхан Х.А., Лексикология современного азербайджанского языка, Баку-Нурлан, 2008, С- 442.
2. Hajiyeva A., English Lexicology (textbook), Baki, Elm və təhsil, 2011, 248 səh.
3. Grinberg L.E., Kuznets M.D., Kumacheva A.V., Meltser G.M. Exercises in Modern English Lexicology, Foreign languages publishing house, Moscow, 1960, -P. 239.

